

Ubaydullayeva Rayxon Abdusalil qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va tillarni o'qitish kafedrası o'qituvchisi
e-mail: rayhon121274@gmail.com Tel: 93-320-77-67

AHMAD A'ZAM VA JORJ ORUEL ASARLARIDA SIMVOLIZM

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyotdagi simvolizmning mohiyati, uning tasviriy san'at va badiiy ijoddagi o'rni tahlil qilinadi. Simvolizmning asosiy tamoyillari, universal va individual simvollar tushunchasi hamda ularning mazmunni chuqurroq ochib berishdagi roli muhokama qilinadi. Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" romani hamda Jorj Oruelning "1984" asarlarida ramzlar orqali jamiyat hayotining falsafiy va axloqiy masalalari qanday tasvirlanganligi qiyosiy o'rganiladi. Ushbu maqola o'quvchiga simvolizmni tushunishda va uni badiiy asarlardagi ahamiyatini anglashda yordam berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: simvolizm, ramz, Ahmad A'zam, "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar", Jorj Oruel, "1984", falsafiy simvolizm, universal simvol, individual simvol, adabiy tahlil.

Убайдуллаева Райхон Абдужалил кизи
преподаватель кафедры
Узбекского языка и языкознания
Гулистанского Государственного
педагогического института

СИМВОЛИЗМ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АХМАДА АЗАМА И ДЖОРДЖА ОРУЭЛЛА

Аннотация. В данной статье анализируется сущность символизма в литературе, его роль в изобразительном искусстве и художественном творчестве. Обсуждаются основные принципы символизма, понятия универсальных и индивидуальных символов, а также их значение в

раскрытии глубокого содержания произведений. Проводится сравнительное исследование использования символов для отражения философских и моральных проблем общества в романах Ахмада Аъзама “Сон или путешествие в страну цепей” и Джорджа Оруэлла “1984”. Данная статья направлена на то, чтобы помочь читателю понять символизм и осознать его значение в художественных произведениях.

Ключевые слова: символизм, символ, Ахмад Аъзам, “Сон или путешествие в страну цепей”, Джордж Оруэлл, “1984”, философский символизм, универсальный символ, индивидуальный символ, литературный анализ.

Ubaydullaeva Raikhan Abdujalil kizi

Gulistan State Pedagogical Institute

Teacher of the Department of teaching

Uzbek language and languages

SYMBOLISM IN THE WORKS OF AHMAD AZAM AND GEORGE ORWELL

Annotation. *This article analyzes the essence of symbolism in literature, its role in the visual arts and artistic creativity. The basic principles of symbolism, the concepts of universal and individual symbols, as well as their significance in revealing the deep content of works are discussed. Ahmad Azam's novels "The Dream or the Path to the Land of Chains" and George Orwell's "1984" conduct comparative studies of the use of symbols to reflect philosophical and ethical problems of society. This article is intended to help the reader understand symbolism and realize its importance in works of art.*

Keywords: *symbolism, symbol, Ahmad azam, "dream or confusion in the land of chains", George Orwell, "1984", philosophical symbolism, universal symbol, individual symbol, literary analysis.*

Kirish

Rus simvolizmining asoschilaridan biri Fyodor Sologub simvolni metaforik tarzda “Simvol – bu cheksizlikka yo‘l ochuvchi deraza”[5] deya e’tirof etib,

simvolning inson idroki chegaralarini kengaytiruvchi xususiyatini ta'kidlaydi. Simvol – bu ma'lum bir fikr yoki tushunchani ifodalaydigan ramziy obraz, belgi yoki alomat bo'lib, u odatiy narsalar ortidan chuqurroq ma'nolarni anglash imkonini beradi. Adabiyotda simvolik mazmun nafaqat obyektlar yoki timsollar orqali, balki vaziyatlar, harakatlar, qahramonlar yoki esda qolarli hodisalar orqali ham ifodalanishi mumkin. Simvolizm usulidan foydalangan muallif soddagina ko'rinadigan syujet ortida kengroq g'oyalarni yoki chuqur ma'nolarni o'quvchiga yetkazishga intiladi. Adabiy asarlarda simvollar ko'p qirrali vazifalarni bajaradi. Ular asarning mazmunini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi hamda muallifning individual qarashlari va dunyoqarashini ramziy shaklda aks ettiradi. Shu bilan birga simvollar orqali yaratilgan mazmun asarga hissiy va falsafiy teranlik bag'ishlaydi, o'quvchining o'z hayoti yoki tajribasi bilan bog'liq nozik ma'nolarni anglashiga imkon yaratadi. Bunday ramziy elementlar nafaqat sujetni boyitadi, balki o'quvchi va asar o'rtasida murakkab, emotsional va intellektual bog'liqlikni ham shakllantiradi.

Badiiy adabiyotda turli xil – simvollar mavjud. Ulardan biri – **universal** simvollar bo'lib, ular keng ma'noga ega va turli madaniyatlarda va davrlarda o'quvchilarga tushunarli bo'ladi. Masalan, quyosh hayot va nur ramzi sifatida ko'riladi, kecha esa qorong'ulik, o'lim yoki ma'naviy qashshoqlikni bildirishini mumkin.

Shu bilan birga **individual simvollar** ham mavjud bo'lib, ular ma'lum bir asar doirasidagi maxsus ma'nolarni aks ettiradi. Bunday simvollar faqat muallif yaratgan kontekstda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Ernest Hemingueyning asarlaridagi “qayiq” timsoli keksalik va hayotdagi zaiflikni ifodalaydi. Adabiyotdagi simvolizm – bu muallifning o'z asaridagi mavzu yoki mavzularni kuchaytirish usullaridan biri. U asarda hissiyotlarni yetkazishga yoki kayfiyat yaratishga yordam beradi. Simvol odam, buyum, rang, hayvon... hatto vaziyat yoki boshqa ma'noni anglatib bora boshlagan takroriy so'z ham bo'lishi mumkin. U asarning mavzulari bilan uzviy bog'liq bo'lib, yangi dunyolar yaratish va o'quvchini hikoyaga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Simvolizm aniq obrazlar

orqali mavhum g'oyalarni ifodalashni tasvirlaydi. Ushbu adabiy usul keng talqin qilish imkoniyatiga ega bo'lgani va ko'plab o'quvchilarning ma'lum obyektlarga nisbatan turli xil munosabatlari mavjud bo'lgani sababli u adabiyotdagi eng murakkab elementlardan biri hisoblanadi. Shunga qaramay, simvolizmni tushunish va simvolning nima ekanligini bilish kitobxonga yaxshi poetik yoki prozaik asarni tushunish uchun juda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Simvolizmni tushunishni murakkablashtiradigan narsa – bu obrazning matnda qanday qo'llanilishidir. Masalan, olov vayronagarchilik va yovuzlikni ifodalashi, ammo shu bilan birgalikda u qayta tug'ilish va hayot aylanishini ham anglatishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Simvol masalasi qadimdan dunyo adabiyotshunos olimlarining tadqiqod obyektiga aylangan bo'lib, jahon olimlaridan E.Vaysman, A.Gornfeld, K.Burke, D.Norman, E.Kastelli, V.Drest, A.Hanzer, Maykl Ferber, Charles Chadviklar bu masalani o'rgangan bo'lsalar, rus olimlaridan A.Potebnya, A.Beliy, V.Ivanov, A.Guber, A.Losev, G.Pospelov, A.Veselovskiy kabi adabiyotshunoslar adabiyotda simvol va simvolizm masalalariga oid o'z ilmiy asarlarini yaratdilar. O'zbek adabiyotshunosligida T.Boboyev, H.Umurov, H.Boltaboyev, D.Quronov, Q.Yoldoshev, I.Yakubov, Sh.Davronova kabi olimlar ramz, ramziy obrazlar va ularning o'zbek adabiyotida ifodalanishi haqida ilmiy qarashlarini e'lon qilganlar. Xususan, adabiyotshinos olim I.Yakubov "Mustaqillik davri o'zbek romani poetikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida: "Ramziylikka daxldor ma'nolarning ochilishi sujetning g'oyaviy-estetik qimmatini aniqlashga ko'maklashadi. Ramziy sujet qadimiyligini aniqlanishi uning muhim va ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Chunki ramziy tasvir qanchalik mukammal bo'lsa, real tasvir ham shunchalik yorqin ochiladi,"- deya e'tirof etgan.[1,181-182] Munaqqidning fikriga qo'shilgan holda shuni ta'kidlashimiz mumkinki, biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan asarlar – Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" hamda Jorj Oruelning "1984" asarlarida simvollar asar mavzu mohiyatini ochishda, real olamni yorqin tasvirlashda yetakchi unsurlardan bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" romani simvolizm yorqin namoyon bo'lgan asar sifatida o'zbek kitobxonlari tomonidan iliq kutib olindi. Romanda falsafiy simvolizm juda katta o'rin tutadi. Ahmad A'zam o'z asarida jamiyatdagi turli xil hayotiy va axloqiy masalalarni simvolik shaklda ifodalaydi, bu esa o'qirmanga chuqur falsafiy mulohazalar qilish imkonini beradi. Hikoyachi qahramon G'uliston nomli g'aroyib shaharga borib qoladi. Bu yerda zanjirga o'ralgan itoatkor odamlarni ko'rib hayratlanadi. Ularning yashash tarzi va urf-odatlarini o'rgangan hikoyachi bu jamiyatning zanjirband turmush tarziga goh achinadi, goh kinoya qiladi, gohida esa o'tkir kulgu va satira orqali kitobxonga o'z fikrlarini bayon qiladi. Hikoyachi qahramon bu jamiyatning dinsizligini, hayotda kerak bo'lmagan keraksiz masalalarni hal qilish bilan ovora bo'lib qolgan g'uliy olimlar-u, Xudo bexabar kishilik jamiyatining "zanjir" detali qarshisida bosh egishi va uni ulug'lashini kinoyali tasvir orqali tasvirlab beradi. Asarda bechora g'uliyarning hatto ismi yo'q, ya'ni zanjir falsafasi qarshisida hamma teng, ajralib turish, individual bo'lish mumkin emas. Ahmad A'zamning mazkur romani Jorj Oruelning "1984" romani darajasidagi asar deya tan olinadi. "Ahmad A'zamning adabiy mahorati" nomli dissertatsiya avtoreferatida tadqiqodchi M.Qodirova "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" romani haqida: "Mazkur asarning yuzaga kelishida Jorj Oruelning "1984" romani ta'sirini ko'rishimiz mumkin", [2,15] - deb xulosa qilgan. Romanlardagi simvollarning mushtarakligini, ishoralarning o'xshashligini e'tiborga olsak, Ahmad A'zamning Jorj Oruelning "1984" asaridan ilhomlanganini sezish qiyin emas.

Shunday ekan, ushbu maqolada biz adabiyotdagi simvolika murakkabliklarini ko'rib chiqamiz va badiiy adabiyotdagi simvolikaga oid misollarni, xususan, Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" asari va jahon adabiyotining nodir asarlaridan biri Jorj Oruelning "1984" asarlaridagi simvollarni qiyoslash orqali o'rganamiz, shuningdek, bu asarlardagi mavhum g'oyalarning qanday ifodalanganligini ko'rib chiqamiz.

Jorj Oruelning "1984" romani voqealari kelajakdagi jamiyatda, partiya tomonidan boshqariladigan, hukumat tomonidan to'liq nazorat qilinadigan

hayotda sodir bo‘ladi. Hikoya Uinston Smit ismli partiya a‘zosining hayoti haqida, u hukumatda tashviqotishlarini olib boruvchi xodim sifatida Haqiqat vazirligida faoliyat yuritadi. Uinston partiyaning hayotning barcha jihatlarini, jumladan, tarix va tilni nazorat qilayotganidan chuqur umidsizlikka tushadi. U partiyaqa qarshi yashirincha isyon ko‘tarishni xohlaydi, shu sababli u shaxsiy fikrni aytish ham mumkin bo‘lmagan davrda o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini ifodalovchi kundalik yuritishni boshlaydi. Uinston yosh ayol Julia bilan tanishadi va ularning o‘rtasida partiya tomonidan ta‘qiqlangan sevgi aloqasi boshlanadi (antitopiya ichidagi fojiali sevgi). Birgalikda ular partiyaning ag‘darishga intilayotgan guruhga qo‘shiladilar. Biroq bu isyon fosh bo‘ladi va ular shafqatsiz jazoga duchor bo‘lishadi. Uinston qiynoqqa solinadi va miyasini yot g‘oyalardan tozalanishi jarayonidan o‘tadi, natijada u partiyaning nazoratiga to‘liq bo‘ysunadi. Kitob Uinstonning partiyaqa to‘liq taslim bo‘lishi bilan yakunlanadi.[3]

“Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” asaridagi eng asosiy ramz – “zanjir” ramzi bo‘lib, u hamma joyda va har vaqt mavjud. Zanjir detali qarshisida barcha bosh egadi va uni ulug‘laydi: *“Yana zehn solsam, zanjirni faqat bugun uchun, biron bayramga atab taqmanqlar, balki umuman yechmanqlar, u jismlarining bir a‘zosi, kundalik lozim kiyimdek bir ko‘nikmaga aylangan, shu qadar ko‘nikib ketganlarki, usiz yurmaydilar, yurmaganlar ham, yurishni tasavvurlariga ham keltirmaydilar”*. [4] Zanjir simvoli “1984” romanining eng taniqli ramzlardan biri – Katta Og‘a ramzi bilan mushtarakdir. Katta Og‘a ramzi Okeaniya atrofidagi turli plakatlarda “Katta Og‘a seni kuzatmoqda” shiori bilan namoyish etilgan.

“Har bir qavat maydonchasida, liftning qarama-qarshi tomonidagi plakatdan yana o‘sha bashara tikilib turardi. Portret shunday ishlangan edi-ki, qayerda bo‘lsang ham, ko‘zlari o‘sha tomon qarab turgandek bo‘lardi. KATTA OG‘A SENI KUZATYAPTI deb yozilgandi surat tagiga.” [3]

“Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romandagi yana bir ramz – ichg‘u simvoli bo‘lib, mazkur simvol totalitar jamiyatda barcha tovarlar va insonlarning eng oddiy ehtiyoj narsalari ham davlat tomonidan kuchli nazorat qilinishining ramzi sifatida kelgan. *“Ichg‘usi shunaqa zo‘r, asl toza ekanki, ichganda bilinmay,*

*kuchini keyin ko'rsatar ekan."*Yoki: *"Zanjirga oid hamma narsa, xuddi ichg'u bilan quyg'u kabi to'liq davlat standartlari va nazorati ostida. Bunda notenglik, haddan oshishga yo'l qo'yilmaganidek, ortiqcha kamtarlikning ham oldi olingan.."*[4]

"1984" romanida *"G'alaba"* jinsharobi (Victory gin) ramzi keltirilgan bo'lib, u partiya hukmronligi ostida hayotning shafqatsiz va zolim tabiatining kuchli ramzidir. Ichimlik dahshatli, ammo odamlar uni xohlaganlari uchun emas, balki boshqa iloji yo'qligini his qilganlari uchun ichishni davom ettiradilar: *"U javondan "G'alaba jinsharobi" deb yozilgan jo'n qog'oz yopishtirilgan, rangsiz ichimlik solingan shisha idishni oldi. Jinsharobning mazasi rasvo, qo'lansa hidli xitoy guruchidan olingan aroqqa o'xshardi. Uinston undan bir choy qoshiq miqdorida quyib, bir dam ruhini jamladi, xuddi dori ichayotgan bemorday ichimlikni yutib yubordi."*[3]

Romanlardagi yana bir o'xshash simvollar– Zanjir jarangi va Yangi til (Newspeak) ramzlaridir. Zanjir jarangi – g'uliyarning norasmiy tili bo'lib, u orqali barcha o'zaro muloqot qiladi. Bu tilda maxsus adabiy me'yorlar ishlab chiqilgan. G'uliyar tilni o'z bilganicha yoki sheva ohanglarida qo'llash huquqiga ega emas. Zanjir jarangi orqali nafaqat zarda qilinishi, balki yomon so'zlar aytilishi ham qat'iy man etiladi, chunki zanjir va uning jarangi g'uliyar uchun muqaddas sanaladi. *"Xuddi shuningdek, zanjirni jiringlatish yo shiqirlatishning qat'iy tartib-tamoyillari, ta'bir joiz bo'lsa, adabiy zanglari ham ishlab chiqilgan. G'uliyning o'z bilgicha yoki shevasi ohanglarida jiringlatishiga tamomila haqqi yo'q, hatto poytaxtda yashaydiganlar ham o'z lahjasida zing etsa, qat'iy jazoga mustahiqdir. Zanjiri olib qo'yilmasa-da, maxsus sirach surtiladi, ming silkitmasin, po'k tovush beradi-da, egasini juda obro'sizlantiradi. Keksalar yoshlarini "Zanjiring doim jingirlab tursin!", deb duo qilishlari ham shunga-da."*[4] Jorj Oruelning *"1984"* romanida esa partiya yangi tilni xalqning tili ustidan nazorat qilish vositasi sifatida qo'llaydi. U isyonkor fikrlarni ifodalaydigan so'zlarni yo'q qilib, odamlarni qarshilik haqida o'ylash imkoniyatidan mahrum etadi, chunki bunday fikrlarni ifodalash uchun so'zlar mavjud bo'lmaydi. *"- Bu juda go'zal ish - so'zlarni*

yo‘qotish. Eng ko‘p axlat, albatta, fe‘l va sifatlarda to‘planib qolgan, ot turkumida ham bor- yuzlab va yuzlab ortiqcha so‘zlar. Nafaqat sinonimlar, antonimlar ham bor. O‘zingiz ayting, boshqa so‘zning qarama-qarshisi bo‘lgan so‘z nega kerak?”[3] Yoki “Yangi til butkul qabul qilingan, Eskitil batamom unutilgan paytda insonga yot tafakkurni ifodalab bo‘lmay qoladi, zero, tafakkur tilga qaramdir”, [3] -degan jummalarda ushbu simvollarni kuzatamiz. Bu asarlardagi mushtarak simvollar haqida quyidagi qiyosiy-tipologik jadvalda to‘liq ma’lumot berilgan.

Tahlillar va natijalar

“Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” va “1984” asarlaridagi simvollarning qiyosiy-tipologik tahlili

“Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar”	“1984”	O‘xshash tomonlari	Farqli tomonlari
Zanjir “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” asaridagi eng asosiy ramz. Zanjir hamma joyda va har vaqt mavjud. Inson aqlini tanimasdan zanjirlanadi hamda bu kishanlanish sharaf sanaladi. Zanjir g‘uliy hayotining ajralmas qismi sifatida kelgan. Kishan g‘uliy larning tana a‘zosiga aylanib ulgurgan.	Katta Og‘a (Big Brother) “1984” romanining eng taniqli ramzlardan biri. Okeaniya atrofidagi turli plakatlarida “Katta Og‘a seni kuzatmoqda” shiori bilan namoyish etilgan. Bu ramz tashqi ko‘rinishi jihatidan Adolf Gitler va Iosif Stalinni eslatadi.	Bu ikki ramz ham totalitar tuzumning insonlar hayotini “zanjirband” qilib yoki har qadamini kuzatib boshqarishiga ishora qiluvchi timsollardir. Har ikkala asarda ushbu ramzlar ilohiylashtirilgan.	“Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romanida g‘uliy lar zanjir taqishni o‘zlariga sharaf deb bilsalar, “1984” romanida partiya a‘zolari Katta Og‘ani yomon ko‘rishadi. Zanjir har bir gu‘liy hayotida mavjud, Katta Og‘ani hech kim hech qachon ko‘rmagan.
Ichg‘u Romandagi bu simvol totalitar jamiyatda barcha tovarlar va insonlarning eng oddiy ehtiyoj narsalari ham davlat tomonidan kuchli nazorat qilinishining ramzi sifatida kelgan. Yana bu ramz G‘uliston davlat mafkurasiga ham ishora qiladi, ya’ni	“G‘alaba” jinsharobi (Victory gin) “G‘alaba” jinsharobi partiya hukmronligi ostida hayotning shafqatsiz va zolim tabiatining kuchli ramzidir. Ichimlik dahshatli, ammo odamlar uni xohlaganlari uchun emas, balki boshqa iloji yo‘qligini his	Har ikkala asarda ham inson his-tuyg‘ulari va emotsiyalari hokimiyat tomonidan boshqarilishi va insonning eng oddiy ehtiyojini qondiradigan mahsulotlarga davlat monopoliyasi o‘rnatilishi ramzidir. Yana bu simvollarni	Ichg‘u – nihoyatda shaffof, “quyg‘u”ga quyilganda ovozi eshitiladi, lekin o‘zi ko‘rinmaydi. Mazasi sezilmaydi, qadah xuddi bo‘shdek tuyuladi. Inson havo yutgandek bo‘ladi. “G‘alaba” jinsharobi – mazasi juda bemaza, inson xuddi moy ichgandek

insonlar quruq havoni–kommunizm haqidagi yolg‘on vadalariga mast bo‘lishini anglatadi. Ichimlik maxsus idish “quyg‘u”da ichilishi bu ichimlikka davlat monopoliyasi mavjudligiga ishoradir.	qilganlari uchun ichishni davom ettiradilar.Ushbu ramz partiyaning inson ruhi ustidan yakuniy g‘alabasini, individual avtonomiyani butunlay yo‘q qilishni talab qiladigan g‘alabani anglatadi.	totalitar davlat mafkurasiga ishora tarzida talqin qilish ham mumkin. Ya’ni bechora g‘uliyalarda mafkuraviy g‘oyalar shunchalik “tiniq”ligidan hatto ko‘rimaydi, Okeaniyada esa mafkura bemaza bo‘lsa ham yutishga majburlar.	bo‘ladi. Betinim ichish oqibatida oshqozonda og‘riq hissini uyg‘otadi, qo‘lansa hidi bor. Shu o‘rinda har ikkala yozuvchi ham bu ichimliklarni totalitar davlat tuzumining g‘oyaviy mafkurasi ramzi sifatida qo‘llagan.
Zanjir jarangi G‘uliyarning norasmiy tili. U orqali barcha o‘zaro muloqot qiladi. Adabiy zang tili ishlab chiqilgan. G‘uliyning o‘z bilgicha va sheva ohanglarida jaranglatishga tamomila haqqi yo‘q. Zanjir jarangi bilan zarda qilinmaydi, yomon so‘zlar bilan jaranglatilmaydi,chunki zanjir va unung jarangi g‘uliy uchun muqaddas hisoblanadi.	Yangi til (Newspeak) Partiya yangi tilni o‘z xalqi gapiradigan tilni boshqarish usuli sifatida ishlatadi . Isyonkor fikrlar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni yo‘q qilish orqali partiya odamlarni qarshilik haqida o‘ylash qobiliyatidan mahrum qiladi, chunki buni ifodalaydigan so‘zlar yo‘q.	Bu ikki xayoliy til orqali avtoritar davlat tuzumida hukumat va partiyaning fikr va ifoda ustidan nazoratini ifodalaydi. Bu bilan tafakkur ufqini toraytirish va insonning fikr yuritish qobiliyatini yo‘qqa chiqarish maqsad qilib olinadi. Ong til orqali boshqarilishi ko‘zda tutilgan.Har ikkala yozuvchi til va tafakkur uyg‘unligini shu simvollarida ko‘radi.	Zanjir jarangi – tovushlar tizimidan tuzilgan so‘zlardan emas, zanjirning jarangidan(musiqasif at) iborat. G‘ulistonda norasmiy til sifatida ishlatiladi. Yangi til– so‘zlar orqali muloqot qilinadi. Okeaniyada hali kuchga kirmagan, ammo gazetalarda shu tildan foydalaniladi.
G‘uliston tarixi Maxsus axborot mahkamalari matbuot va tarixni o‘zgartirish borasida ishlaydi.Tarixi bekitilib-bekitilib butkul yo‘qolgan, shuning uchun qaysi davr bo‘lmasin kerakli voqeoti to‘qiladi.Tarix ramzi orqali adib o‘tmishdan kechishlik –o‘zlikdan kechish ekanliliga, totalitar nazorat tuzumi tarixni o‘zi istaganicha o‘zgartirishiga ishoradir. O‘tmish g‘uliyar istagan matohga aylangan.	Okeaniya tarixi Okeaniyaning o‘zgaruvchan tarixi partiyaning haqiqat va haqiqatni manipulyatsiya qilishini aks ettiradi. Partiya doimiy ravishda o‘tmishni hozirgi ehtiyojlariga mos ravishda qayta yozadi, hech kim uning vakolatiga qarshi chiqa olmaydi yoki voqealar tizimiga shubha qila olmaydi. Tarixning bu manipulyatsiyasi totalitar nazorat mavzusini ta’kidlaydi, chunki o‘tmish partiya	Bu asarlarda tarix bir xil ramzni anglatgan. Ikkalasida ham u qayta yoziladi, tinimsiz tahrirlanadi va o‘tmishni yo‘qotish orqali ommani boshqarish timsoli sanaladi, ya’ni kishilik jamiyati ma’naviy qadriyatlarda o‘tmishga suyanadi. O‘tmish yo‘qotilsa,insonning o‘zligi yo‘qoladi, o‘z-o‘zini tanimagan, ma’naviy va tarixiy ildizi bo‘lmagan kishilik jamiyatini boshqarish oson bo‘ladi. Bu ikki	G‘uliston tarixi Elektron bo‘yoq orqali o‘zgaradi. Qo‘lda yozishga hojat yo‘q, ma’lumotlar avtomatik tarzda almashadi. Texnika rivoji shu darajadaki, ushlab turgan kitob yoki gazeta,hatto qonunlar bo‘lsa ham ko‘z yugurtirish jarayonida almashib qoladi. Okeaniya tarixi Haqiqat vazirligi xodimlari tomonidan qo‘lda almashtirilib yoziladi.Uinston shu vazirlik xodimi

	aytgan narsaga aylanadi.	jamiyat ham shunday boshqariladi.	sifatida, har kuni tarix “to‘qish” bilan shug‘ullanadi.
Televizor Televizor G‘ulistonda asosiy axborot tarqatuvchi manba sanaladi hamda u orqali davlat mafkurasining targ‘ibot va tashviqoti olib boriladi. Bosh qahramon G‘ulistonga kelishi bilan unga atalgan ko‘rsatuv namoyish qilinadi. Tumonat bo‘lib jo‘rlikda zanjirga munojot aytiladi. Xalqini mahkumlik tuyg‘ulari qamrab olish uchun foydalaniladi. Kecha-yu kunduz zanjir falsafasi tarannum qilinadi.	Telekran (telescreeens) Romandagi telekranlar ham muhim ramziy ahamiyatga ega. Bu qurilmalar orqali hukumat aholini to‘liq nazorat qiladi va ularni ideologik jihatdan tarbiyalaydi. Telekranlar nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki har bir fuqaroning kundalik hayotini nazorat qilish quroli hamdir. Ular shaxsiy hayotning yo‘qligi, to‘liq nazorat va rejimning qudrati ramzi sifatida xizmat qiladi.	Bu ramzlarning ikkalasi ham axborot vositalari, ayniqsa, televideniye insonlarga mafkura singdirishning eng qulay va tez ta‘sir qiluvchi vositasi sifatida keltirilgan. Shu o‘rinda angliyalik mashhur tadbirkor Natan Rotshildning “Ma‘lumotlarga egalik qiluvchi dunyoga egalik qiladi”degan jumlasini keltirish o‘rinlidir.	Televizor ramzi G‘uliston mamlakatida davlat mafkurasi agitatori vazifasida kelsa, Okeaniyada telekranlar partiya xodimlarining har qadamini, hatto shaxsiy hududini ham nazorat qiluvchi tuzum ramzi sifatida berilgan. Telekranda nafaqat inson harakatlari, hatto yuz ifodasida aks etgan ichki kechinma va hissiyotlargacha nazorat qilinadi.
Fotmachumchuq Yozuvchi bolalikda ko‘rgan qushlarini G‘ulistonda uchratadi. Hozirgi kunda yo‘qolib ketgan fotmachumchuqni ko‘rib qattiq ta‘sirilanadi. Bu ramz o‘tmishga, beg‘ubor bolalarcha sof tuyg‘ularga ishoradir. Fotmachumchuq muallif tomonidan “jannat tuynugidan chiqqan qush”- deya ta‘riflanadi. Demak, bolalik damlari jannatga qiyoslanyapti. Bolalik qushlarini yozuvchi G‘ulistonda uchratishi–uning bolaligi shunga o‘xshash mamlakatda kechganiga ishora bor.	Press-papye (glass paperweight) Marjon qog‘oz bostirgich asarda Uinston uchun qimmatli va partiya yo‘qotish istagida bo‘lgan o‘tmish, soddalik va ma‘naviy boylukning ramzi sifatida xizmat qiladi. Lekin romanning oxirida bu vazani davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar tomonidan sindirilishi tarixning, Uinstonning shaxsiy hayoti va orzulari ham singanligini ko‘rsatadi.	Bu yerda ikkala ramz ham o‘tmish, tarix, beg‘ubor bolalik va go‘zal his-tuyg‘ular timsolidir. Ikkalasi ham chiroyli, nafis va juda nozikdir. Bu ramzlar ikkala asarda eng muqaddas, beg‘ubor his-tuyg‘ularga, inson hayotining eng musaffo, eng toza davriga ishora qilmoqda. Uinston ham G‘ulistonga borib qolgan hikoyachi qahramon ham bu ikki ramzni mehr bilan tilga oladi.	Fotmachum-chuqdan farqli ravishda Press-papye asar so‘ngida sindiriladi, bu esa orzu-umidlarning singanligini bildiradi. Fotmachumchuq hikoyachi qahramonning qo‘liga bir qo‘nadi-da, so‘ng uchib ketadi, ya‘ni bu yaxshi damlar o‘tkinchiligiga ishora bor bo‘lsa , press-papye– marjon qog‘oz bostirgich hukumat nozirlari tomonidan eskilik sarqiti sifatida ataylab sindiriladi. Bu hukumat insonning shaxsiy xotiralarini nazorat qilishiga ishoradir.

Zanjirning yo‘qligi G‘uliyalar uchun eng katta jazo– zanjirini olib qo‘yish sanaladi. Og‘ir jinoyat qilganlarning zanjiri olib qo‘yiladi. Jinoyatchilar qamalmaydi, shunchaki zanjirsiz qoladi. Hech kim ularning yuziga-da qaramaydi. Uni yo‘qdek ko‘rmaslikka olishadi. Jamiyatga umuman aralasholmaydi. Yakka holda, yolg‘izlikda vafot etadi..	101-xona 101-xona qiynoqlarning yakuniy shaklini anglatadi, bu yerda shaxslar o‘zlarining eng yomon qo‘rquvlariga duch kelishadi. Bu qarshilikning har qanday shaklini buzish uchun partiyaning kuchi darajasini anglatadi. 101-xona partiyaning inson ruhi ustidan mutlaq nazoratini aks ettiradi.	Ikkala o‘rinda ham insonning qo‘rquvlari orqali inson ruhiga ta’sir qilish va uni nazorat qilish aks ettirilgan. Zanjiri echib qo‘yilgan g‘uliy kishilik jamiyatidan chetlashishini ifodalagan yozuvchi inson zoti uchun jamiyatda yashash, unga aralashish qanchalik muhim ekanligiga ishora qiladi.	Zanjirning yo‘qligi– jamiyatdan ayrilib qolish qo‘rquvi, jamiyat a’zolidan chiqib ketish ramzi sifatida kelgan bo‘lsa, 101-xona insonning shaxsiy qo‘rquvlarini va ruhiy azoblarining timsoli sanaladi. Shaxsiy qo‘rquvlar insonning eng qabih va jirkanch qirralarini ochadi va xiyonat qilishga majbur qiladi.
--	---	--	---

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, adabiyotda simvolizm oddiy so‘zlar va obrazlar orqali chuqur falsafiy g‘oyalarni yetkazishning qudratli vositasidir. Ahmad A‘zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romani simvolizmning yorqin namunasi bo‘lib, unda jamiyatning axloqiy inqirozi va insoniyatning zanjirband turmush tarzi ramziy tasvirlanadi. Ushbu asar Jorj Oruelning “1984” romani bilan mushtarak jihatlariga ega bo‘lib, tadqiqotchilar mazkur romanlarni chuqur simvolik mazmuni va o‘xshash g‘oyaviy yo‘nalishlari sabab bir-biri bilan bog‘lashadi. Romandagi ramzlar va kinoyali tasvirlar o‘quvchini jamiyatdagi murakkabliklarni falsafiy mushohada qilishga undaydi. Shu bois, Ahmad A‘zamning ushbu asari o‘zbek adabiyotida muhim falsafiy meros sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романи поэтикаси. Ффд дисс-яси – 2018 . Б 181-182

2. Qodiroma M. Ahmad A'zamning adabiy mahorati. Ffd (PhD) diss. avtoreferati Samarqand, 2024.15- bet
3. Оруэл Жорж. 1984 Тошкент: NIHOL– 2020.–340б
4. A.A'zam Ro'yo yoxud G 'ulistonga safar. Yangi asr avlodi ,T.–2011. –247 bet
5. <https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=578051> Федор Сологуб. О символизме [Электронный ресурс] /